

Yolg'on doim rostdan yengiladi. U xuddi suv yuzasidagi ko'pikdek yo'q bo'lib ketadi.

Yaxshi xulq yaxshilikning alomatidir.

Ilm har narsadan yuqori, hech narsa undan yuqori bo'la olmaydi. Ega bo'linadigan narsalarning eng sharaflisi ilmdir.

Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir.

Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi. Berilgan yo'nalish bo'yicha jadvaldagi gapni o'qing va yozing.

										I	Y	U	N	D	O	D	H	G	A
										B	U	K	A	J	M	L	A	R	M
										Y	A	L	O'	O	L	B	I	S	U
										L	I	K	B	D	V	A	M	O	N

Buyuk ajdodlarga munosib avlod bo'laylik!

“Adashgan harflar” mashqi.

Harflarni o'z o'rniga to'g'ri joylashtirib Abu Rayhon Beruniy qayerda tavallud topgani bilib olinadi.(Xorazm)

3.Darsni yakunlash va baholash:

“BBB” mashqi. Fikrni yakunlang.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman

 **Uyga vazifa:** Allomalardan birini tanlab u haqda ma'lumot topib yozing.

12-mavzu: Buyuk sarkarda

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni “Amir Temur va chumoli” rivoyati bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: buyuk bobolarmiz haqida ma'lumot berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: xulosa va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, interaktiv o'yinlar

Dars jihozi: mavzuga mos rasmlar, „O'gitlar sandig'i“.

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

-O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

-Mavzu nomi e'lon qilinadi.

-Tashkiliy savollar beriladi.

-Mavzuga qiziqtirish: *Berilgan so'zlardan bitta gap tuzing.*

Samarqand poytaxt Amir Temur

Mirzo Ulug'bek nabira olim

Sarkarda mard jasur o'g'lon

-O'tilganlarni takrorlash:

Allomalardan birini tanlab u haqda topib kelgan ma'lumotlarni so'rash.

2.Asosiy qism(mavzuni tushuntirish va mustahkamlash):

☒ **Amaliy topshiriq.** Topishmoqni o'qishadi va javobini topishadi.

Karvon o'tdi, ko'rdingmi?

Amaliy topshiriq muhokamasi uchun savollar:

1.Siz qanday so'zni qo'ydingiz?

2.Nima uchun bu so'z to'g'ri keladi deb o'ylaysiz?

3. Topishmoqning javobini topishda sizga qaysi so'zlar yordam berdi?

☒ **Mavzuni tushuntirish.** Amir Temur haqida qisqacha ma'lumot berish.



Amir Temur yirik davlat arbobi, buyuk turkiy sarkardasi, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysidir. Amir Temur Shahrisabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan.

U jasur va mard yigit bo'lib o'sdi. Ota-onasi va ustozlari uni haqiqiy jangchi qilib tarbiyalashdi. Temurning asosiy maqsadi Movarounnahrning parchalanishini yengish va bu yerlarni yagona davlatga birlashtirish edi.

☒ **Matn bilan ishlash.** "Amir Temur va chumoli" rivoyati o'quvchilarga zanjir usulida o'qitiladi.

- Qiyinchiliklar qarshisida doimo tik tursak, zafarga erishamiz.
- Istagi aniq, bu yo'lda g'ayratli insonga barcha to'siqlar yo'l beradi.

? Darslikda berilgan savollarga javob beriladi.

1. Amir Temur bobomiz haqida nimalar bilasiz?
2. Amir Temur bu martabaga yetishishiga nima sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?
3. Nima uchun kichik bir chumoli sarkardaga o'rnak bo'lgan?
4. Amir Temur qanday voqeani so'zlab berdi?
5. Siz rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?

Lug'at ishi

o'rnak– boshqalar ergashsa arziydigan ish.

umidsizlik–ishonchsizlik

rizq–hayot uchun zarur oziq, nasiba.

g'ayrat–kuchli intilish, ishtiyoq.

azm-shijoat–qat'iy maqsad.

☒ **“Tanlab o‘qish” mashqi.**

Quyidagi so‘zlar bilan boshlanadigan gaplarni topib o‘qing.

Hayotim davomida ...

Barcha narsadan umidimni...

Chumoli o‘zidan katta...

Chumolidagi g‘ayrat ...


Bundan keyin maqsadim...

☒ **Mashq daftari bilan ishlash. Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi.**

“Amir Temur va chumoli” rivoyatdan chiqargan xulosa yuzasidan mulohaza yuritiladi va yoziladi.

☒ **“Bog‘la” mashqi.**

Mashq daftarida berilgan so‘zlar ularning ma’nolari bilan moslashtiriladi.



Harflarni to‘g‘ri ketma-ketlikda o‘qib, Amir Temur bobomizning uzugida yozilgan o‘gitni bilib olishadi.(Kuch adolatdadir)

☒ **“O‘gitlar sandig‘i” mashqi.**

Amir Temur o‘gitlaridan alohida varaqlarga yoziladi va sandiqchaga solinadi. O‘quvchilar o‘gitlarni sandiqdan olib o‘qishadi va mazmunini yoritishadi.



Adovat emas, adolat yengadi.

Bir kalima shirin so'z qilichni qinga kiritar.

Kuch adolatdadir.

Yaxshini yomon kunda sina.

Qo'rqmasang yov qochar.

3.Yakuniy qism(xulosalash va baholash):

- Rivoyatdan qanday xulosaga keldingiz?

Fikrni davom ettiring: *"Men bugun darsda ... bilib oldim."*



Uyga vazifa: Amir Temur bobomiz haqida ma'lumotlar to'plang.

Rivoyatning mazmunini so'zlab bering.

13-mavzu: Mirzo Ulug'bek

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni Abdulla Po'latovning "Mirzo Ulug'bek" she'ri bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: buyuk bobolarmiz haqida ma'lumot berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: she'rni ifodali o'qishga va qofiyadosh so'zlarni topishga o'rgatish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, interaktiv o'yinlar

Dars jihozi: mavzuga doir rasmlar, rag'bat kartochkalari.

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

-O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

-Mavzu nomi e'lon qilinadi.

-Tashkiliy savollar beriladi.

-Mavzuga qiziqtirish: 🎮 "U kim, bu nima?' o'yini

O'quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy zanjirlarni bog'lashni o'rgatishga yordam beruvchi o'yin faoliyat turi.



Kerakli materiallar: